



Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-iyun holatiga)

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan
o'tgan

24112
ta.

2019-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 2908 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1441 taga ko'pdir.

Faoliyat
ko'rsatayotgan

23611
ta.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3947 ta (20,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 23611 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil
etilganlar

2908
ta.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)

24112 tani tashkil etdi

18,6 %

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda




O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati

2019-yilning 1-iyun holatiga 24112 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,6 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,6 % savdo, 13,0 % sanoat, 12,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,9 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (5682 ta) savdo, (3141 ta) sanoat, (3105 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (2859 ta) qurilish, (1082 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (864 ta) tashish va saqlash, (559 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (281 ta) axborot va aloqa, hamda (6539 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **23611** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3947 ta (20,1 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Qurilish




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Qarshi shahri (4946 ta) va Chiroqchi (1939 ta), Koson (1885 ta), Qarshi (1821 ta), Kitob (1664 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (799 ta), Muborak (843 ta) hamda Nishon (887 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-may oylarida 2908 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1441 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish sur'ati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (839 ta), sanoat (667 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (442 ta) va qurilish (330 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (25 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (66 ta) hamda tashish va saqlash (67 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



442

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



166

Sanoat



667

Axborot va aloqa



25

Qurilish



330

Tashish va saqlash



67

Savdo



839

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



66


Boshqa turlar



306


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (559 ta), Chiroqchi (253 ta), Qarshi (240 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Muborak (82 ta) va Dehqonobod (102 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajada.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda

Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 18899 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



145 ta


O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 martaga o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

Asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Afg'oniston va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 145 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 87 taga yoki 2,5 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Afg'oniston va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 112 tasi qo'shma, 33 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 42 ta (jamidagi ulushi 28,8 %), Kitob tumanida 15 ta (10,3 %) va Qarshi tumanida 10 tani (6,8 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Shahrisabz shahrida 3 tani (2,1 %) va Shahrisabz 4 ta (2,7 %) tumanida tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




Boshqalar



1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 55 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48 taga ko'paygan.



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 8 ta, Rossiya Federatsiyasi - 7 ta, Turkiya Respublikasi - 7 ta, Qozog'iston Respublikasi - 7 ta va Eron Islom Respublikasi - 5 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 35 ta sanoat, 8 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5 ta savdo, 4 ta qurilish, va 1 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)




2019-yil 1-iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 18730 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 20,7 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-may oylarida 2678 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1272 taga ko'proqdir.




•Kichik tadbirkorlik
sub'ektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
sub'ektlarining eng kichik
ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 18730 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5523 ta (29,5 %) - savdo, 3052 ta (16,3 %) - sanoat, 3006 ta (16,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2770 ta (14,8 %) - qurilish, 1046 ta (5,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 823 ta (4,4 %) - tashish va saqlash, 410 ta (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 266 ta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1834 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

31,0 %



Sanoat

24,8 %



Qurilish

12,3 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,2 %



Tashish va saqlash

2,5 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

16,4 %



Axborot va aloqa

0,9 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,8 %




Boshqa turlar

4,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 831 ta, sanoat 664 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 439 ta va qurilish 329 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 25 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 49 ta hamda tashish va saqlashda 67 ta tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (516 ta), Chiroqchi (236 ta), Qarshi (212 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (77 ta) va Dehqonobod (91 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-iyun holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan
● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan
● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-iyun holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,0 % yoki 295 tasi sanoat, 20,4 % yoki 194 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,4 % yoki 165 tasi savdo, 17,0 % yoki 162 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,2 % yoki 30 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % yoki 14 tasi qurilish, 0,9 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 8 tasi axborot va aloqa hamda 7,8 % yoki 74 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Qashqadaryo viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi .
Tel.:71-230-84-10(11)**